



AYRIS MERDOKNING IJODIY FAOLIYATINI BADIY TALQINI

Zulfanova Nigina Nuritdinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ayris Merdokning ijodiy faoliyatini badiiy talqini borasida fikr yuritiladi. A. Merdokning romanlari ko'pincha inson ichki kurashlari bilan jamiyatdagi ijtimoiy muhitning kesishuv nuqtalarida joylashganligi, adabiyotshunoslarning tadqiqot mavzusiga aylangan. Shu jihatdan, bugungi kunda, yozuvchining asarlari adabiyot, falsafa, etika, estetika sohalari kesishmasida joylashgan yagona ilmiy-amaliy platforma vazifasini bajarayotganligi, uning ijodiy faoliyati bir necha jihatdan o'ziga xosligini namoyon etib kelmoqda.*

Kalit so'zlar: *ijod, badiiy tafakkur, axloqiy, adabiyot, falsafa, etika, estetika, faylasuf yozuvchi*

XX asr ingliz adabiyoti uchun falsafiy roman janrini sezilarli darajada kengaytirgan muhim yozuvchi va faylasuflarning ijodini gullagan davri hisoblanadi. Ulardan biri, o'z davrining yetuk faylasuf yozuvchisi, ijodkor, o'ziga xos tarzda ijod mahsuliga ega bo'lgan yetakchi vakili Ayris Merdok hisoblanadi. Uning badiiy ijodi faqat adabiy janrlar chegaralarini kengaytirmagan, balki, inson ruhiyatining ichki qatlamlari, axloqiy tanlov va shaxsiy erkinlik tushunchalarini ham chuqur tadqiq qilgan. Avvalo, u shaxsiy tajribalar, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va falsafiy aniqlikni badiiy matnga ijodiy uslubda birlashtirgan. So'ngra, uning qahramonlari ichki dunyo – ijodiy jarayon o'rtasidagi uzviy aloqani aks ettirib, ijodiy harakatlar bilan ruhiy anglash jarayonlari muloqotda namoyon bo'ladi. Yakunida, Merdok falsafiy tafakkur bilan badiiy ifodaning uyg'unligi orqali roman janrida muayyan yangi estetik mezonlarni yaratgan.

Ayris Merdok Irlandiyaning Dublin shahridagi Ingliz-irland oilasida tug'ilgan⁶². Adib ziyolilar oilasida voyaga yetgan va ijodkorlik faoliyatini 1938 yilda Oksford universitetining Somerville kollejiga o'qishga kirganidan boshlab, qadimiy adabiyot, tarix va falsafa fanlariga qiziqishi ortgan, lekin, undan oldin ingliz tili va adabiyotini o'rganmoqchi bo'lgan⁶³. Oksfordda u faylasuf Donald M. MakKinnon rahbarligida falsafa o'rgangan va Eduard Fraenkelning "Agamemnon"⁶⁴ bo'yicha seminarlarining faol qatnashuvchisi bo'lgan. Shundan keyin, 1942 yilda u birinchi darajali faxriy diplom bilan Oksfordni tamomlagan⁶⁵.

⁶² Meyers, Jeffrey [Remembering Iris Murdoch: Letters and Interviews](#). New York: Palgrave Macmillan. ISBN 9781137352415. Archived from the original on 7 February 2018. Retrieved 1 June 2015. – 234 p.

⁶³ Susan, Brown; Patricia, Clements; Isobel, Grundy. ["Iris Murdoch"](#). *Orlando: Women's Writing in the British Isles from the Beginnings to the Present*. Cambridge University Press. Retrieved 15 October 2018. – 203 p.

⁶⁴ Conradi, Peter J. [Iris Murdoch: A Life](#). New York: Norton. 2001. – 109 p. ISBN 0393048756.

⁶⁵ Somerville College. ["Iris Murdoch"](#). *Somerville Stories*. Archived from [the original](#) on 23 June 2012. Retrieved 27 June 2012. – 203 p.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Universitetni tamomlagandan keyin ham Angliyadagi Oksford universitetining faxriy falsafa professori sifatida faoliyatini davom ettirib, ijodiy mavzularidagi noodatiylik, syujetlaridagi kutilmaganlik, uslubining nozikligi va o‘quvchining hissiy dunyosiga so‘zsiz ta‘sir o‘tkazuvchi jozibasi bilan kitobxonlar e‘tiborini qozongan va adabiyotshunos olimlarning tadqiqot mavzularining markaziga aylangan.

Yozuvchi ijodi mobaynida, roman muallifi, dramaturg, shoir, publitsist va adabiyotshunos alloma, shu bilan birga, falsafachi sifatida ham arzirli ishlari bilan adabiyot olamiga kira olgan. Ijodiy faoliyati mobaynida avvalo, Oksfordda klassik filologiyani, Kembrijda esa falsafani batafsil o‘rganib, uzoq yillar davomida Oksford universitetida falsafa fanidan dars bergan. Merdokning adabiy ijodi bir necha dramatik asarlar, yigirma olti roman, she‘rlar to‘plami hamda, adabiy-tanqidiy esselar majmuasidan iborat. Roman janrining tan olingan ustasi sifatida, u Buyuk Britaniyaning eng nufuzli adabiy mukofotlarining bir nechtasiga sazovor bo‘lgan.

Professional falsafachi Ayris Merdokning barcha romanlarining mohiyatiga ko‘ra, adabiyotning yuqori turini ma‘lum falsafiy, axloqiy va estetik nazariyalar bilan uyg‘unlashtirish, yoki ular bilan bahs yuritish hisoblanganligi sababli, adibning shaxsi adabiyotshunoslik, lingvistika, falsafa, madaniyatshunoslik sohalari olimlarining e‘tiborini jalb qilgan.

Tadqiqotimizda Ayris Merdokning ijodida ichki dunyo va ijodiy jarayon o‘rtasidagi murakkab munosabatni, shuningdek, uning qahramonlarini psixologik va axloqiy rivojlanishini roman kompozitsiyasi va badiiy til vositalari doirasida tahlil qilishdir. Shu nuqtai nazardan, Merdokning asarlari nafaqat ingliz adabiyoti tarixida, balki, xalqaro adabiyotshunoslik va falsafiy tadqiqotlarda ham o‘z izini qoldirgan. Uning romanlaridagi qahramonlarning ichki ruhiy kurashlari va ijodiy qadr-qimmatlari orqali, inson ruhining murakkabligini va erkinlik ehtirosini badiiy obrazlarda aks ettirish imkonini yaratgan. Bu esa Merdokning asarlarini adabiy tahlil qilish bilan birga, falsafiy tahlil qilishni ham talab qiladi. A. Merdokning romanlaridagi poetikasi asoslarini tadqiq etgan rus olimi E.A. Osipenko o‘z dissertatsiyasida A. Merdokning egzistensializm va Platon falsafasiga qiziqishini tasvirlagan. Yozuvchining qahramonlari inson hayotining ma‘nosiga doir axloqiy taraflama batafsil yoritiladi⁶⁶.

Merdokning asarlarini yozish jarayonida Suqrot usulidan foydalanadi va uning qahramonlari ham haqiqatga, tushuncha va nurga intiladilar. “Axloq falsafasi” termini Merdok ijodiga nisbatan birinchi marta P. Konradi tomonidan kiritilgan⁶⁷. Uning romanlaridagi personajlar va ularning harakatlari, tanlovlari, ichki murosalari orqali muallifning dunyoqarashi ochib bergan tadqiqotchi hisoblanadi. Merdokga Platonning san’atning irratsional, hissiy kuchini, “... *the irrational emotional power of art, the ability*

⁶⁶ Осипенко, Е.А. Принципы игровой поэтики в романах Айрис Мердок 50-80 годов: Дис. ... канд. филол. наук: 10.01.03: Балашов, 2004. – 156 с.

⁶⁷ Conradi P. J. Iris Murdoch : the saint and the artist / Peter J. Conradi. — New York : St.Martin’s press, 1986. – XVI, 304 p.



to tell an attractive lie and a dangerous truth” ya’ni “yoqimli yolg‘on va xavfli haqiqatni aytish” qobiliyatini inkor etishi yaqin edi⁶⁸. Platonning san’atning irratsional, hissiy kuchini ifodalovchi hikmatli iborasini quydagicha tahlil qilamiz.

*“irrational emotional power of art”*⁶⁹ — bu ibora san’atning odamlarni mantiq bilan emas, hissiyotlar orqali ta’sirlantira olishini anglatib, san’at ko‘pincha ongli ravishda tushuntirib bo‘lmaydigan hissiyotlarni uyg‘otishligi ifodalanadi. Masalan, musiqa, she’r, rasm yoki, film odamga nega bunday kuchli ta’sir qilganini tushuntirib bo‘lmaydi, bu “irratsional” holati mantiq bilan o‘lchab bo‘lmaydigan kuch sifatida talqin qilinadi.

*“the ability to tell an attractive lie”*⁷⁰ — bu yerda *“chiroyli yolg‘on”* deganda san’atning haqiqat bo‘lmagan narsani jozibali tarzda tasvirlashi nazarda tutiladi. Masalan, ertaklar, romantik filmlar yoki, fantastika asarlari haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, ammo, ular chiroyli, maftunkor va ilhomlantiruvchi bo‘ladi, deya ta’riflanadi. San’at ba’zan odamlarni tasalli berish yoki, umid berish uchun “yolg‘on” yaratadi.

*“and a dangerous truth”*⁷¹ — san’at ba’zan jamiyat yashirmoqchi bo‘lgan, og‘riqli yoki, xavfli haqiqatlarni ham ko‘rsatadi, deya tushuncha beradi. Urush dahshatlari, siyosiy zulm, adolatsizlik yoki odamning ichki qorong‘u tomonlari haqidagi tushunchalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Keltirilgan jumladagi “xavfli” deyilishiga sabab, bunday haqiqatlar odamlarni o‘ylashga, savol berishga yoki, tizimlarga qarshi chiqishga majbur qilishi mumkin.

“Qora shahzoda” asari sevgi, san’at va inson tabiatining ko‘p qirrali tadqiqi bo‘lib, o‘zining boy adabiy ishoralari va murakkab syujet tuzilmasi bilan ajralib turadi. Asar istak va axloqiy halollik o‘rtasidagi ziddiyatni yoritib, noaniq, biroq, chuqur axloqiy manzara yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Conradi, Peter J. [Iris Murdoch: A Life](#). New York: Norton. 2001. – 109 p. [ISBN 0393048756](#).
2. Conradi P. J. *Iris Murdoch : the saint and the artist* / Peter J. Conradi. — New York : St.Martin’s press, 1986. – XVI, 304 p.
3. Dewey, J. *Art as Experience*. — New York: Perigee Books, 1934. – 56 p.
4. Meyers, Jeffrey [Remembering Iris Murdoch: Letters and Interviews](#). New York: Palgrave Macmillan. [ISBN 9781137352415](#). [Archived](#) from the original on 7 February 2018. Retrieved 1 June 2015. – 234 p.

⁶⁸ Мёрдок А. Литература и философия. Разговор Айрис Мердок с Брайаном Маги / А. Мёрдок ; перевод Д. Березко // Иностранная литература. — 2019а. — № 5. — 250—274 с.

⁶⁹ Dewey, J. *Art as Experience*. — New York: Perigee Books, 1934. – 56 p.

⁷⁰ Vaihinger, H. *The philosophy of “as if”*. London: Routledge. 1911. – 45 p.

⁷¹ Orwell, G. *Politics and the English language*. London. 1946. – 354 p.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



5. Мёрдок А. Литература и философия. Разговор Айрис Мердок с Брайаном Маги / А. Мёрдок ; перевод Д. Березко // Иностранная литература. — 2019а. — № 5. — 250—274 с.
6. Осипенко, Е.А. Принципы игровой поэтики в романах Айрис Мердок 50-80 годов: Дис. ... канд. филол. наук: 10.01.03: Балашов, 2004. — 156 с.
7. Orwell, G. *Politics and the English language*. London. 1946. — 354 p.
8. Vaihinger, H. *The philosophy of "as if"*. London: Routledge. 1911. — 45 p.
9. Susan, Brown; Patricia, Clements; Isobel, Grundy. "[Iris Murdoch](#)". *Orlando: Women's Writing in the British Isles from the Beginnings to the Present*. Cambridge University Press. Retrieved 15 October 2018. — 203 p.
10. Somerville College. "[Iris Murdoch](#)". *Somerville Stories*. Archived from [the original](#) on 23 June 2012. Retrieved 27 June 2012. — 203 p.